

Benjamin Franklin (1706-1790; AQSh)

Dunyoga mashhur faylasuf olim, siyosatchi, diplomat va ixtirochi Benjamin Franklin ingliz muhojiri Jozef Franklin oilasidagi 17-farzandning sakkizinchi edi. Uning otasi hunarmand bo'lib, sovun va sham ishlab chiqarish bilan shug'ullangan. Yosh Benjamin o'zi mustaqil tahsil olgan. U birinchi bo'lib tebranma o'rindiqni ixtiro qilgan.

1746 yilda Benjamin tasodifan doktor Spensning "fizika xonasini mo'ljizalari" seansiga boradi. U yerda ilk bor elektr mashinasi bilan tanishadi va elektr tajribalariga qiziqib qoladi.

1776 yilda u Farangistonga elchi sifatida jo'natiladi. Benjamin Franklin Amerika Konstitutsiyasining mualliflaridan biri hamdir.

Shuni aytish joizki, insoniyat tarixidagi eng ajoyib va buyuk ixtirolardan biri hisoblanmish yashin qaytargichni ham Benjamin Franklin o'ylab topgan. U elektr sohasidagi kashfiyotlari va boshqa ko'plab amaliy yangiliklari bilan jahonga dong taratdi. Faylasuf sifatida esa insoniy munosabatlar muammosini tadqiq etib, ko'plab foydali amaliy tavsiyanomalar yozib qoldirdi. "Vaqt — pul", degan mashhur hikmatning muallifi ham Benjamin Franklindir ("Yosh savdogar uchun maslahatlar" asarida). Uning eng mashhur asarlari quyidagilar: "Ozodlik va zaruriyat, huzurhalovat va iztirobga doir mulohazalar" (1725), "Boy bo'lishni istovchilar uchun muhim maslahatlar", "Mo'l-ko'lchilikka yo'l" (1758).

XVIII asr Amerikasida Benjamin Franklin kabi har tomonlama qobiliyatli va sermahsul odamini ko'rmagan. Yozuvchi va noshir, olim va jamoat arbobi, diplomat va faylasuf Benjamin Franklinga vatandoshlari "Eng ilg'or amerikaliklar orasidagi birinchi shaxs" deb baho berganlar. U 84 yoshida vafot etdi va butun Amerika xalqi 30 kun motam tutadi. Uning nomi insoniyat ko'rki, ilm, ozodlik va Vatan uchun beqiyos xizmat ko'rsatgan dahosifatida "Insoniyatning eng buyuk namoyandalari" ro'yxatiga kiritilgan.

[https://t.me/Elektron\\_kitoblar\\_Uz](https://t.me/Elektron_kitoblar_Uz) kanali uchun

[https://t.me/Fan\\_Darsliklari](https://t.me/Fan_Darsliklari) darslik va qollanmalar kanali